



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

YURIDIK SOHADA SUN'iy INTELLEKTNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI

Qurbanova Sevara¹

Samadova Shohida²

Termiz davlat universiteti

KEYWORDS

sun'iy intellekt, SI
ommalashuvi ahamiyati,
yuridik sohada SI, SI afzalliklari
va kamchiliklari, SI keltirib
chiqarishi mumkin bo'lgan
muammolar, AQSH yuridik
tizimida SI, Xitoy yuridik
tizimida SI, Markaziy Osiyo
davlatlari huquq tizimida SI.

ABSTRACT

mazkur maqolada bugungi kunda deyarli barcha sohalarga kirib borishga ulgurgan sun'iy intellektning (SI) nafaqat mamlakatimiz yuridik sohada, balki dunyoning rivojlangan bir qator davlatlari yurisprudensiyasida tutgan o'rni, uning bajarayotgan roli va ahamiyati, hamda kelajakdag'i istiqboli so'z boradi. Shuningdek maqolada mutaxasislarining yuridik sohada sun'iy intellekt ahamiyatiga oid tadqiqot va tajribalari ham tahlil qilinadi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.1538413](https://doi.org/10.5281/zenodo.1538413)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanayotgani natijasida bugungi kunda hayotimizga ko`plab innavatsion yangiliklar kirib kelmoqda. Bu o'zgarishlar o'z ta'sirini turli sohaga turlicha ko`rsatishmoqda. Deyarli barcha soha vakillari singari huquqshunoslar ham bu ilm-fan yutuqlaridan, jumladan sun'iy intellektlardan samarali foydalanish mexanizmini izlashmoqda.

Bugungi kunda butun dunyo insonlari orasida sun'iy intellektdan foydalanish ommalashgani va u kirib bormagan sohalarning deyarli qolmayotgani hech kimga sir emas. Bugun siz-u bizning vazifalarimizni yengillashtirishda yordam berayotgan tizim yaratilish tarixi 1950-1956-yillarga borib taqaladi. 1950-yilda Alan Tyuring tomonidan yaratilgan bu tizimga 1956-yilda Jon Makkarti tomonidan Sun'iy intellekt atamasi beriladi va shu tarzda bu ibora butun dunyoda ommalashdi².

Hozirgi axborot texnologiyalar zamonida sun'iy intelekt tushunchasi hayotimizning butun jabhalarini qamrab oldi .Xususan ,yuridik soha faolyatiga ham o'z ta'siri o'tkazib kelmoqda.

¹ TerDU Yuridik fakulteti 2-kurs talabasi

² TerDU Yuridik fakulteti 2-kurs talabasi

² <https://dorik.com/blog/history-of-ai>

Yuridik axborotlar olish, turli muammoli vaziyatlarga yechim topish va to'g'ri qaror qabul qilishda sun'iy intellekt insonlar bilan bir qatorda huquqiy soha vakillariga ham yaqindan ko'mak bermoqda. Jumladan, u ko`p vaqt talab etadigan murakkab jarayonlarni yengillashtirish bilan bir qatorda ularni tezlashtirmoqda ham.

Dunyoning ko`pgina davlatlari huquq-tartibot sohasida SI ning roli va funksiyalari ortib bormoqda. Bu borada Boshqirdiston respublikasi hakamlik sudi raisi Nikolay Arxiyereyev sud tizimiga sun'iy intellekti joriy etish sud ishlarining sifat va samaradorligini oshirishi, biotermik identifikatsiya texnologiyalari yordamida sud majlisida fuqarolarning masofaviy ishtirok etish imkoniyatini kengaytirishi, nizolar sonini kamaytirish va sud qarorlarining natijalarini prognoz qilish orqali huquqiy ongni rivojlantirishi, qonun hujjatlarining o'zgarishiga mos ravishda sud tizimiga tushadigan ish hajmini oldindan aniqlash imkoniyatlarini yaratishi haqida fikr bildirgan³.

Germaniya davlatida esa Adliya tizimining raqamlashtirilishi fuqarolarga huquqiy tizimga kirishni osonlashtirish bilan birga, huquqiy tizimni mustahkamlamoqda. Federal Adliya vazirligi (BMJ) shtatlar bilan hamkorlikda "Adliya uchun raqamlashtirish tashabbusi" orqali koalitsiya shartnomasida e'lon qilingan Adliya uchun raqamli paktni amalga oshirmoqda. BMJ ilk bor shtatlarning raqamlashtirish loyihibarida ham texnik, ham moliyaviy jihatdan faol ishtirok etmoqda. Ushbu tashabbusning maqsadi adliya tizimini yanada samarali qilish va shu orqali sud xodimlari hamda sud jarayoni ishtirokchilarining yukini sezilarli darajada kamaytirishdir. Bundan tashqari, jinoyat ishlari bo'yicha arizalarni topshirish jarayonini soddalashtirish va apellyatsiya jarayonlarida video konferensiya orqali ishtirok etish imkoniyatini yaratish ham rejalashtirilgan. Sun'iy intellekti joriy etish orqali kelajak uchun muhim o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, jumladan, fuqarolik ishlari bo'yicha ommaviy sud jarayonlarini qo'llab-quvvatlash uchun sun'iy intellekt loyihibariga moliyaviy yordam ko'rsatilmoqda⁴.

Mamlakatimizda ham sun'iy intellekti rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada 2021-yil 26-avgustda "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimi" joriy qilish chora tadbirlari to'g'risida"gi va 2024-yil 14-oktabrda "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilindi. Ushbu Prezident qarorlari mamlakatimizda sun'iy intellekt texnologiyalarini yaratishga qaratilgan bo'lib, qarorning maqsadi inson mafaatini ustuvor qilib, yangi texnologiyalarni rivojlantirish orqali fuqarolar turmush sifatini yaxshilashdan iborat. Huquq sohasida texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq dastlabki qadam 2007-yilda O'zbekistonning online normativ-huquqiy hujjatlar bazasi – "Lex.uz" saytining ishga tushurilgani bo'lsa, hozirda uning takomillashuvi namunasi sifatida "Lex AI" platformasining yaratilgani bo'ldi. Sayt qonun hujjatlarini osson topish, shuningdek unga kiritilgan o'zgarishlardan muntazam xabardor bo'lib turush imkoniyatini bersa, platforma – jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan berilgan huquqiy savollarga online javob berishga, turli

³ https://rapsinews.ru/judicial_analyst/20220907/308254120.html

⁴ <https://www.bmj.de>

darajadagi hujjatlarni huquqshunos ishtirokisiz, konstruktor asosida mustaqil tayyorlashga, qonunchilik hujjatlari loyihalarini online ravishda tayyorlash va ekspertiza (tavsiyaviy xarakterda) qilishga, hujjatlar asosida huquqiy amaliyotni tahlil qilish asosida foydalanuvchilar tomonidan bergen keyslarga javob berishga mo'ljallangan yuridik xizmatlarni jamlagan⁵. Platforma Adliya vazirligi qoshidagi "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi tomonidan yuritiladi va u tomonidan berilgan javoblar tavsiyaviy xarakterga ega hisoblanadi hamda hech qanday huquq va majburiyatlar keltirib chiqarmaydi. Ya'ni ma'lum bir keyslarga SI orqali olingan javoblar natijasidan kelib chiqadigan oqibatlar uchun markaz ham, undan foydalanuvchi shaxslar ham javobgar bo`lmaydi.

Biroq dunyoning bir qancha davlatlari huquq tizimida sun'iy intellektning roli anchagina ortgan. Xususan, Xitoy davlati misolida oladigan bo`lsak, so'nggi o'n yil ichida Xitoy sudlari bir nechta onlayn platformalarni, shu jumladan sud qarorlarini qidirish uchun va sud qarorlarida qatnashish uchun bir nechta onlayn platformalarni yaratdilar. Onlayn platformalar qonuniy protseduralarni soddalashtirishga va sudlovchilarga o'z ishlarini kuzatib borish va yuridik xizmatlardan foydalanishning yanada qulay usullarini taklif qilishga qaratilgan. Masalan, Xitoyda 2017-yilda "Aqlii sudlar" (Smart Court) tizimi ishga tushurilgan bo`lib, bu asosida 2019-yil Shenchjen shahri sudida "Fa syao" (FaXiao) nomli sun'iy intellektdan foydalangan holda ilk sud qarori qabul qilingan. Platforma sudyalarga dalillarni avtomatik tarzda saralash, qonun hujjatlarini tezkor tahlil qilish va qarorni asoslashda yordam bergen.

Bundan tashqari 2019-yilda ishlarni avtomatik tarzda ko`rib chiqishga mo'ljallangan "Zhangyi Court" nomli boshqa bir platforma ham ishga tushurilgan. U taraflarning videokonfrensiya tarzida ishda qatnashishiga va hujjatlarni raqamlashtirib, ish jarayonini tezlashtirishga imkon bergen.

Texnalogiyaning bu saylda rivojlanishi barchada kelajakda yuristlar faoliyatiga qanchalik ijboiy-u qanchalik salbiy ta'sir qiladi, o'zi yuristlarga ish qoladimi degan savolni tug`dirishi tabiiy.

Sun'iy intellektni huquq sohasida qo'llanishi qanday ijobiy jihatlarni yuzaga keltiradi?

Bu savolga bir qancha misollar tarzida javob berish mumkin.

Birinchidan, Sun'iy intellekt yuridik amaliyot uchun juda katta foya keltirishi. Eng muhim jihatlaridan biri — vaqt ni tejashi. Kompyuter tizimlari insonlardan ancha tez ishlaydi, ko'proq ma'lumotlarni chuqurroq tahlil qila oladi. Masalan, bir yurist hujjatni taxminan bir soat davomida tahrir qilsa, lekin xuddi shu hujjatni AI dasturiga topshirganda, dastur barcha xatolarni bir daqiqadan kamroq vaqt ichida topishi va tuzatishi mumkin.

Ikkinchidan, 24/7 ishlash tizimining bo`lishi. Bu har bir insonga istalgan vaqtida huquqiy maslahat yoki ma'lumot bera olishi.

Uchinchidan, istalgan yerdan ma'lumot olish mumkinligi. Ya'ni bu orqali hech qayerga bormasdan turib ham ma'lumotlarga ega bo`lish mumkinligi.

To`rtinchidan, Sillardagi ma'lumotlar bepul bo`lishi. Bu oddiy aholining kundalik hayotida

⁵ <https://ai.lex.uz/abou>

duch keladigan muammolariga yechim topishda ortiqcha harajatlar qilishining oldini oladi. Beshinchidan, ma'lumot sig' imining kattaligi. Inson miyyasi bir vaqtning o'zida bunchalik ko'p informatsiyalarni saqlab qola olmaydi. SI esa bu borada ancha ustunlikka ega⁶. Misol tariqasida, Xitoyning Jiangsu provinsiyasida sun'iy intellekt 9 milliondan ortiq ishni saralagani natijasida ko'p miqdorda vaqt va mablag` tejalgan⁷.

Sun'iy intellektning bu kabi afzalliklar berishi uning butkul mukkamalligini anglatmaydi. Chunki unda ustunliklar bilan bir qatorda kamchiliklar mavjud bo`lib, sun'iy intellekt bergen yechimlar har doim to`g`ri bo`lavermaydi. Masalan, AQSH sun'iy intelektdan foydalanish bilan bog'liq muommoga duch kelgan. 2023 yilda Avianca aviakompaniyasiga qarshi shaxsiy jarohati bo'yicha da'vagini mijozni himoya qilgan advokat, ish bo'yicha qisqacha ma'lumot yozishda yordam berish uchun ChatGPT-dan foydalangan. AI chatbot yordam berishdan xursand bo'lib, ishni tasdiqlovchi mukammal yozilgan va asosli hujjatlarni taqdim etgan. Bahsni davom ettirish uchun zarur huquqiy iqtiboslar bilan to'ldirilgan edi. Ko'pgina iqtiboslar mavjud bo'limgan holatlarga tegishli edi. Advokat va sherigi, shuningdek, ularning advokatlik firmasi ushbu masala bo'yicha jarima va sanksiyalar bilan jazolandı. Xuddi shu yorqin g'oyaga ega bo'lgan va ChatGPT qanday ishlashini tushunmaydigan boshqa huquqshunoslar bu xabarni o'z vaqtida olishmadi va xuddi shunday muommoga duch kelishgan.⁸ Ushbu vaziyat huquqshunoslarni e'tiborli bo'lishga undaydi. Negaki, sun'iy intelektdagi ma'lumotlar bazasi doimiy ravishda to'lib, ammo yangilanmasdan boraveradi. Bu esa qonunchilik tizimida ko'plab mutanosiblikni keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi onlayn dunyoda sun'iy intelektga ega bo'lish shart. Biroq, bu sun'iy intelekt odamlarning o'rnini bosishi kerak degani emas. Bu nafaqat axloqiy sabablarga ko'ra balki odamlar o'z ishlariga mashinalar qila olmaydigan hissiy element olib kelishgani uchun ham inson omili muhim.

Mashinalar faqat ma'lumotlar bilan shug'ullanishi mumkin lekin ular ushbu ma'lumotlardan to'g'ri foydalilmaydami yoki yo'qligini baholay olmaydilar. Sun'iy intelekt boshqa sohalar bilan bir qatorda yuridik soha uchun faqat qo'shimcha yordamchi bo'lib xizmat qila oladi xolos. Biz sun'iy intelektga yuridik soha kelajagini topshirib qo'yolmaymiz, chunchaki undan samarali foydalanish mexanizmini yaratishimiz lozim. Yuqorida keltirilgan tajriba va muommolarni to'g'ri tahlil qilib, yechim bersak keljakda yuridik sohada sun'iy intelekt ko'plab istiqbollarga erishishi mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. <https://dorik.com/blog/history-of-ai>
2. https://rapsinews.ru/judicial_analyst/20220907/308254120.html

⁶ <https://www.americanbar.org/news/abanews/publications/youraba/2017/september-2017/7-ways-artificial-intelligence-can-benefit-your-law-firm/>

⁷ https://uz.a.uz/oz/posts/sud-tizimiga-suniy-intellektni-joriy-qilish-qanday-ahamiyat-kasb-etadi_682166

⁸ <https://search.app/MENrKdVSoB9jwVbY6>

3. <https://ai.lex.uz/about>
4. <https://www.americanbar.org/news/abanews/publications/youraba/2017/september-2017/7-ways-artificial-intelligence-can-benefit-your-law-firm/>
5. https://uza.uz/oz/posts/sud-tizimiga-suniy-intellektni-joriy-qilish-qanday-ahamiyat-kasb-etadi_682166
6. <https://search.app/MENrKdVSoB9jwVbY6>
7. <https://jemma.innovascience.uz/index.php/jemma/article/view/556>
8. https://uza.uz/oz/posts/sud-tizimiga-suniy-intellektni-joriy-qilish-qanday-ahamiyat-kasb-etadi_682166
9. <https://www.allerin.com/blog/the-rise-of-ai-in-jinoyatchilikningv>
10. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0267364920300649>
11. <https://editorials.voa.gov/a/7407609.html>
12. <https://www.statista.com/forecasts/1474143/global-ai-market-size>